

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMATISAKOV JAXONGIRMIRZO JAMOLIDDIN O‘G‘LI**

**BO‘LAJAK GEOGRAFIYA FANI O‘QITUVCHILARINI  
O‘QUVCHILARDA GEOLOGIK BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHGA  
TAYYORLASH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

UO‘K: 371.6: 911.3 (372.891)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
geographical sciences**

**Mamatisakov Jaxongirmirzo Jamoliddin o‘g‘li**

Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini o‘quvchilarda geologik bilimlarni  
rivojlantirishga tayyorlash metodikasi ..... 3

**Маматисаков Жахонгирмирзо Жамолиддин угли**

Методика подготовки будущих учителей географии к развитию  
геологических знаний учащихся ..... 21

**Mamatisakov Jakhongirmirzo Jamoliddin ugli**

Methodology of preparing future teachers of geography for the development of  
students' geological knowled..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMATISAKOV JAXONGIRMIRZO JAMOLIDDIN O‘G‘LI**

**BO‘LAJAK GEOGRAFIYA FANI O‘QITUVCHILARINI  
O‘QUVCHILARDA GEOLOGIK BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHGA  
TAYYORLASH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5055 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ahmadaliyev Yusupjon Ismoilovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Rajabov Furqat To'raqulovich**  
pedagogika fanlar doktori (DSc), dotsent

**Janibekov Bobur Omonovich**  
geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 202-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti bosh binosi, 105-xona, Tel.: (99899) 776-77-25, faks: (+99866) 239-11-40; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (+99899) 776-77-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil " \_\_ " \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil " \_\_ " \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.B.Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash raisi g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

**M.R.Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda iqtisodiyotning yuksak sur'atlarda rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayishi bir vaqtni o'zida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish muammosini kun tartibiga qo'yimoqda. Resurslarning hududiy tarqoqligi, miqdor jihatidan cheklanganligi ulardan barqaror foydalanishni ta'minlashda jamiyatning geologik savodxonlik darajasini oshirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida "2030-yilga kelib barcha o'quvchilar barqaror rivojlanishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlash<sup>1</sup>" vazifasi belgilangan. O'quvchilarda tabiiy resurslardan samarali foydalanish, barqaror rivojlanish ko'nikmalarini shakllantirishda bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining tayyorgarlik darajasini oshirish, o'qitishning zamonaviy metodlarini takomillashtirish va geologik bilimlarni o'quvchilarga yetkazishning innovatsion usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida aholining geologik savodxonlik darajasini oshirish, geologik bilimlar berishning zamonaviy usul va vositalarini qo'llash orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy geologiya fanida erishilgan yutuqlarni o'rganish va amaliyotda qo'llashdagi dastlabki bilimlar poydevori geografiya darslarida qo'yiladi. Bu borada geologik bilimlarni rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish jarayonlarini chuqurlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ham geologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish, o'qitishning zamonaviy uslublaridan keng foydalanish, geologiya sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan rivojlantirish, shuningdek, geologiya sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot o'rtasida uzviy bog'liqlikni yetarli darajada ta'minlashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni 23-maqsadida ham "Geologiya sohasida zamonaviy ta'lim standartlarini keng joriy etgan holda malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish<sup>2</sup>" bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son - Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son - Pedagogik ta'lim

<sup>1</sup> <https://www.un.org/sustainabledevelopment/education/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindiki, mazkur dissertatsiya tadqiqoti yuqoridagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda, xususan, bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirish jarayoniga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik huquqiy davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish usullari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda geografiya ta'limini tashkil yetish, shuningdek, geografik bilimlarni yegallash va ta'lim vositalaridan foydalanish kabi masalalar H.Hasanov, P.G'ulomov, M.Asomov, R.Qurbonniyozov, P.Musayev, P.Baratov, S.Matsaidova, O.Mo'minov, M.Nabixonov, X.Nikadambayeva, V.Rafiqov, O.Safarov, I.Abdug'aniyev, M.Yunusova, A.Abdulqosimov, A.A.Azizov, Sh.Avazov,, B.A.Kamolov, A.A.Rafiqov, B.Abdurahmonov, F.R.Saydamatov, M.Tojiboyeva, M.Qo'ldasheva va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan Geologik ta'limning didaktik va metodik asoslarini ishlab chiqishda I.V. Dushina, V.P. Solomin, Y.M. Nesterov, V.I. Zubov, V.P.Golov, D.P.Finarov, Y.L.Slastenov, S.A.Jemulin, L.I.Kotelnikov, O.V.Tkachenko, N.D.Andreyeva, Y.A.Darinskiy, N.E.Kuznesova va boshqa olimlar shug'ullanishgan.

Xorijlik olimlar R.Goodland, D.Harvey, P.Haggett, R.Peyet, Ch.Rawding, Y.Perramond Ch.Osgud, D.Uotson, Y.Torndayk, B.Skinner, U.Jeyms, A.Blum, M.Abraxam, A.Maslow, R.Clark Burton, K.Cummings William va boshqalarning tadqiqotlarida geografik bilimlarni egallashning nazariy va amaliy darajasi asoslab yoritib berilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetida 2018-2020-yillarga mo'ljallangan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi PZ-20170930223-raqamli "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi:** Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirishga tayyorlash metodikasini rivojlantirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarida geologik bilimlarni rivojlantirishga tayyorlash imkoniyatlari mavjud bo'lgan fanlar va ilmiy yo'nalishlar imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishga tayyorlash modelini takomillashtirish;

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarida geologik bilimlarni rivojlantirish va geografiya ta'limida fanlar integratsiyasi uzviyligini ta'minlash asosida o'quvchilarni geologik axborotlar bilan ta'minlashning axborot-metodik tizimi takomillashtirish;

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarga geologik bilimlarni berish va ularni geologik dunyoqarashini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish;

**Tadqiqot obyekti:** sifatida bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirishga tayyorlash jarayoni olingan. Pedagogik tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat pedagogika instituti, Guliston davlat universiteti va Farg'ona davlat universitetlarining jami 535 nafar talabalari tanlab olindi.

**Tadqiqot predmeti:** bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirishning shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, psixologik yondashuv, modellashtirish, matematik-statistik tahlil, natijalarni umulashtirish, tajriba-sinov, monitoring baxolash, oliy ta'lim muassalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak geografiya fani o'qituvchilariga geologiya sohasidagi bilim ko'nikma va malakalarni berish va rivojlantirib borish imkoniyatlari mavjud bo'lgan fanlar va ilmiy yo'nalishlar tizimi, bo'lim va mavzulari aniqlashtirilgan;

bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirishga tayyorlash modeli geologik tadqiqotlar namunalaridan foydalanishning pedagogik bosqichlarini progressiv ko'rsatkichli metodlarga sinergetik optimallashtirish jarayoni o'qitishning reproduktiv, evristik va muammoli ta'lim komponentlariga uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarida geologik bilimlarni rivojlantirish va geografiya ta'limida geografiya+toponimika+geologiya uzviyligini ta'minlash asosida o'quvchilarni geologik axborotlar bilan ta'minlashning axborot-metodik tizimi takomillashtirilgan;

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarga geologik bilimlarni berish va ularni geologik dunyoqarashini shakllantirishning metodik tizimini motivatsion, kognitiv, faoliyatli mezonlariga ustuvorlik berish hamda kreativ (yuqori), reproduktiv (o'rta) va adaptiv (past) darajali topshiriqlar asosida o'stirish metodikasi takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishning mazmuni, mohiyati va tamoyillari aniqlangan;

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirish va kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda nazariy va amaliy

bilimlarni boyitish maqsadida "Geomorfologiya va geologiya asoslari" nomli darslik ishlab chiqilgan va nashr etilgan;

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishga doir o'quv jarayonini dasturiy ta'lim vositalari asosida amalga oshirishda "Teaching geology" nomli dasturiy ta'minot yaratilgan;

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy innovatsion-pedagogik modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Mamlakatimiz va xorijda amalga oshirilgan pedagogika sohasidagi ilmiy-tadqiqot metodlariga asoslanganligi, qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi. Shuningdek, olingan natijalar ishonchliligi Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamlari, OAK e'tirof etgan maxsus va xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar e'lon qilinganligi bilan asoslanadi

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligining asoslanganligi, "geografiya", "geografiya fani o'qituvchisi", "ta'lim tizimi", "ta'lim texnologiyasi", "geologik bilimlar", "pedagogik model" kabi tushunchalarning mazmuni va mohiyatini yoritib berilganligini, muammoning psixologik-pedagogik xususiyatlari, jarayonni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniqlanganligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarni o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirish modeli ishlab chiqilganligi, mazkur jarayoning amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarning takomillashtirilganligi, didaktik shart-sharoitlari ishlab chiqilgan hamda kelgusida tadqiqotchilar tomonidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganligi bilan ham ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishga tayyorlash metodikasi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarida geologik bilimlarni rivojlantirish va geografiya ta'limida geografiya+toponimika +geologiya uzviyligini ta'minlash asosida o'quvchilarni geologik axborotlar bilan ta'minlashning axborot-metodik tizimi takomillashtirilganligiga doir yangiliklardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan va yuqoridagi tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o'z aksini



topgan (O‘zbekiston milliy universitetining 2024-yil 29-iyundagi 04/11-5353-son ma‘lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini o‘quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan.

bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarida geologik bilimlarni rivojlantirishga tayyorlash imkoniyatlari (motivatsion, kognitiv va faoliyatli-refleksiv) eksperimental faoliyatga asoslangan tizimda androgogik loyihaviy faoliyatning masofaviy shakllarini amalda faol qo‘llash asosida aniqlashtirilganligiga oid tavsiyalar “Geomorfologiya va geologiya asoslari” nomli darslik, “Teaching Geology” nomli elektron dastur hamda “60530400-Geografiya” ta‘lim yo‘nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 28-iyundagi 02/01-01-58-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqotning natijaviy yangiliklari asosida geografiya fani o‘qituvchilarida geologik bilimlarni rivojlantirishga tayyorlash imkoniyatlarini takomillashtirish imkoni yaratilgan.

bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirishga tayyorlash modeli geologik tadqiqotlar namunalaridan foydalanishning pedagogik bosqichlarini progressiv ko‘rsatkichli metodlarga sinergetik optimallashtirish jarayoni o‘qitishning reproduktiv, evristik va muammoli ta‘lim komponentlariga uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilganligiga doir yangiliklardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-raqamli “O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan va yuqoridagi tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston milliy universitetining 2024-yil 29-iyundagi 04/11-5353-son ma‘lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini o‘quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan.

bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini o‘quvchilarga geologik bilimlarni berish va ularni geologik dunyoqarashini shakllantirishning metodik tizimini motivatsion, kognitiv, faoliyatli mezonlariga ustuvorlik berish hamda kreativ (yuqori), reproduktiv (o‘rta) va adaptiv (past) darajali topshiriqlar asosida o‘stirish metodikasi takomillashtirilganligiga oid tavsiyalar “Geomorfologiya va geologiya asoslari” nomli darslik, “Teaching Geology” nomli elektron dastur hamda “60530400-Geografiya” ta‘lim yo‘nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 28-iyundagi 02/01-01-58-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqotning natijaviy yangiliklari asosida geografiya fani o‘qituvchilarini o‘quvchilarga geologik bilimlarni berish va ularni geologik dunyoqarashini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huziridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlar tizimini shakllantirishga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida

Mamlakatimizda qabul qilingan “O'zbekiston – 2030” strategiyasida “Iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxonalar – oliygoh – ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bunda, geologiya sohasidagi ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash orqali geologiya sohasida yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishning dastlabki bosqichlariga qadam qo'yish, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish mazmuni, bosqichlari, modeli va metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Geologik bilimlar bugungi fundamental ta'limning ajralmas qismi xisoblanib, insonlarga atrof-muhitda sodir bo'layotgan jarayonlarni anglash, tabiatdan foydalanishni o'rganish, ekologik jihatdan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni ko'ra olish, avvaldan ularni aniqlash va oldini olish, mahalliy, mintaqaviy va global darajadagi geologik jarayonlar to'g'risida umumiy tushunchalar olishga imkon beradi. Ushbu fundamental bilimlar insonlarda geografik bilimlarning asosiy guruhlaridan biri bo'lgan geologik bilimlarni o'zlashtirishlari natijasida shakllanadi.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyati bir tomondan, uning hududida tarqalgan milliy boyliklar miqyosi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, ana shu


boylıklardan oqilona foydalanishga qodir bo'lgan, yetuk salohiyatli mutaxassis kadrlari bilan belgilanadi. Ma'lumki, bizning mamlakatimiz zamini foydali qazilmalarga boy bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Jumladan mamlakatimizda bugungi kunda 2025 tadan ortiq konlar mavjud mazkur qazilma boyluklarni qidirish, izlash, baholash va ulardan samarali foydalanish hamda zaxiralarini yanada ko'paytirish yosh mutaxassislarga, ularning bilim va malakalariga ko'p jihatdan bog'liq.

Avvalambor ushbu sohani rivojlantirishda va malakali kadrlar tayyorlashda geografiya ta'limining o'rni va ahamiyati katta xisoblanadi.

Geografiya ta'limi – barqaror geografik ta'limiy ta'sirni (samarani) vujudga keltirishda o'zaro bog'langan sharoitlar va tarkibiy qismlar majmui. Bu tizim geografiya ta'limi metodikasining fan sifatida yuqori oxirgi obyektini hisoblanadi.

geografiya fani tabiat, aholi va xo'jalikni o'rganuvchi ilmiy fan va insonlarning geologik savodxonligi rivojlantiruvchi o'quv fani sifatida rivojlanishi o'ziga xos tarixga ega. Ular hamisha bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda va aloqadorlikda rivojlanib kelgan. Ilmiy geografik bilimlar har doim geografiya ta'limining asosini tashkil qilgan. Geografiya darslari orqali ilmiy va amaliy geologik bilimlarni yanada chuqurroq o'rganish shuningdek, o'quvchilarni geologiya faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va kelajakda ushbu kasbga yo'naltirishda maktab geografiya ta'limining ahamiyati yuqori xisoblanadi. Ushbu dolzarb vazifalarni xal qilishni esa bo'lajak geografiya fani o'qituvchilari o'z zimmasiga olishi kerak. O'quvchilarda geologik ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni maktab davridan boshlab amalga oshirish juda yaxshi samara beradi. Bu jarayonni amalga oshirishni esa bo'lajak geografiya fani o'qituvchilari o'z zimmalariga olishi kerak.

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarning geologik bilimlarini rivojlantirishga tayyorlash avvalambor ularning talabalik davrlaridan boshlanadi. Chunki bo'lalajak o'qituvchilar ushbu yillar davomida geografiya fani va uning tarmoqlari chuqur o'rganadilar. Buning amaliy ifodasi sifatida biz Farg'ona davlat universiteti 60530400 - Geografiya yo'nalishi (2022-2023-o'quv yili 1-kurs uchun) tasdiqlangan o'quv rejasini tahlilini ko'rib chiqsak. Mazkur o'quv yili uchun tasdiqlanga o'quv rejasiga ko'ra o'quv fanlari majburiy fanlar va tanlov fanlariga ajratilgan bo'lib, umumiy yuklama hajmi 6120 soatni tashkil yetadi. Shundan majburiy fanlar 4920 soat (jami soatga nisbatan 80.3 foizi) va tanlov fanlari 1200 soat (jami soatga nisbatan 19,7 foizi)ni tashkil yetmoqda. Biz tadqiqot olib borayotgan Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlar tizimini takomillashtirish nuqtai nazaridan yuqoridagi fanlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu majburiy va tanlov fanlari orasida geologik bilimlar berishi mumkin bo'lgan asosiy fanlar (Geomorfologiya va geologiya asoslari, Geologiya asoslari) hamda tarkibida geologik mazmundagi mavzulari mavjud bo'lgan (Umumiy tabiiy geografiya, Landshaftshunoslik, Jahon geografiyasi, Jahon xo'jaligi geografiyasi, O'zbekiston geografiyasi Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari, Geofizika asoslari va geokimyos Geografik o'lkashunoslik, Sanoat geografiyasi, Farg'ona vodiysi geografiyasi) kabi fanlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.




**1-rasm. 60530400 - Geografiya yo‘nalishi (2022-2023-o‘quv yili 1-kurs uchun) tasdiqlangan o‘quv rejasi tahlili.**

Jahon mamlakatlarida geologik bilim va ko‘nikmalarni yoshlarga tizimli singdirib borish amaliyoti O‘zbekistonda nisbatan barvaqt boshlangan. Shuning uchun dunyo tajribasidan foydalanish va geologiya ta‘limidagi muammolarni bartaraf qilish maqsadida rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, ularning ahamiyatli jihatlarini milliy ta‘lim tizimiga olib kirish muhim pedagogik vazifalardan biri xisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini o‘quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirishning pedagogik sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida zamonaviy usul va vositalar o‘quvchilarning o‘zlashtirishini oshirish, tushunchalarini shakllantirish, amaliyotga tadbiq etish va tahlil qilishga qiziqishlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quv jarayonlarini o‘quvchilar uchun qiziqarli va sodda qilishda yordam beradi, o‘quvchilarning o‘z vaqtida o‘rganish imkoniyatini yaratadi va o‘quv jarayonlariga individual tayyorlashda katta ahamiyatga ega xisoblanadi. Bugungi kunda o‘quvchilarning idrok qilish qobiliyatlari va bilimlarini tekshirish maqsadida geografiya darslarida har bir o‘quvchining o‘qishdagi mustaqilligiga va o‘quv axborotlarini qabul qilish hamda qayta ishlashlarini tashkil qilishga yordam beruvchi dasturlashtirilgan o‘qitish qo‘llanilmoqda. Ta‘limda axborot texnologiyalarining faol qo‘llanilishi o‘quvchida mustaqil izlanishni rag‘batlantiradi. Chunki mohiyatan axborot texnologiya modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirish davomidagina o‘zlashtiriladi .

Tadqiqotimiz doirasida bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini o‘quvchilarda geologik bilimlar tizimini rivojlantirishda oliy ta‘lim muassasalarining 60530400 – Geografiya ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi Geomorfologiya va geologiya asoslari fani mavzularini o‘qitishni takomillashtirish uchun “Teaching geology” nomli dasturiy ta‘minot yaratildi. (2-rasm).



**2-rasm. Teaching geology dasturiy ta'minotining bosh oynasi.**

Ushbu dasturiy ta'minot bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining o'quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirishda foydalanish uchun "Geomorfologiya va geologiya asoslari" darsligi mavzulari asosida yaratilgan. Dastur bir nechta muhim afzalliklarga ega. Birinchidan, u mavzularni o'quvchilarga sodda va tushunarli shaklda taqdim etadi, bu esa qiyin mavzularni ham oson tushunishga yordam beradi. Mavzularni vizualizatsiya qilish imkoniyati bilan ayrim murakkab geologik jarayonlar, masalan, tog'larning shakllanishi, yerning ichki qatlamlari, vulqon faolligi va tektonik plitalar harakati kabi jarayonlarni yanada osonroq tasavvur qilishga yordam beradi. Bu jarayonlar foto va videolavhalar bilan boyitilib, har bir mavzuga chuqurroq yondashish imkonini beradi. Ushbu lavhalar o'quvchilarning mavzuni amaliy tarzda o'rganishiga katta yordam beradi, ularga ko'rish va eshitish orqali ma'lumotni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Ikkinchidan, ishlab chiqilgan dasturiy ta'lim vositasi yordamida o'quvchilar zilzilalar, foydali qazilmalar, yerning ichki tuzilishi, tog'larning paydo bo'lishi, vulqon otilishi, foydali qazilmalarning shakllanish jarayonini, ko'z bilan ko'rib anglab bo'lmas boshqa jarayonlarni ham video, 3D animatsiyalar, virtual muhit holatida real hayotdagidek ko'rib, ularni o'rganishga kreativ yondashadilar. Dasturiy ta'minotnin ishlab chiqishda zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan 3D modellash, virtual haqiqat (VR), interaktiv simulyatsiyalar va sun'iy intellekt (AI) elementlaridan foydalandi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga geologik jarayonlarni chuqurroq tushunishga, ularni real vaqt rejimida tahlil qilishga va murakkab ma'lumotlarni osongina o'zlashtirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion vositalar yordamida geologiya fanini o'qitish jarayoni yanada jonli, qiziqarli va samarali bo'ladi. Ushbu vositalar o'quvchilarning diqqatini tortish bilan birga, ularning mavzularni puxta o'zlashtirishiga va bilimlarini real hayotda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.





### 3-rasm. “Teaching geology” dasturiy ta’minotining asosiy komponentlari

Bu nafaqat geologiya faniga qiziqishni oshiradi, balki kelajakda ushbu sohada malakali mutaxassislar yetishib chiqishiga ham katta xissa qo’shadi. Zamonaviy o’qitish usullari orqali o’quvchilar global muammolarni tushunishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga va tabiatni himoya qilishga yanada mas’uliyatli yondashadilar.


Mamlakatimizda geologik ta’limni rivojlantirish uchun xizmat qiladigan bo’lajak o’qituvchilarni innovatsion metodik faoliyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilganligi bejiz emas.

Model fan mantiqi va metodologiyasida – ma’lum bir tabiiy yoki ijtimoiy hodisa, inson madaniyati hosilasi, konseptual-nazariy shakllanma va shu kabilar bir qismi asl nusxasining analogi (belgili tizimi, tuzilmasi, chizmasi), o’xshashligi, ya’ni – modelidir. Mazkur analog asl nusxa to’g’risidagi bilimlarni (axborotlarni) kengaytirish va saqlab qolish, asl nusxani loyihalashtirish, o’zgartirish yoki uni boshqarishga xizmat qiladi.

Model fikran tasavvur etiluvchi yoki moddiy jihatdan ro’yobga keltirilgan tizim bo’lib, tadqiqot obyektni aks etirgan yoki qayta tiklagan holda uni shunday almashtirishi mumkinki, natijada o’rganish jarayonida mazkur obyekt to’g’risida yangi ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo’linadi.

Bo’lajak o’qituvchilarning o’quvchilarda geologik bilimlarni shakllantirish modelini yaratish tadqiqot davrida hal etilgan ilmiy-pedagogik vazifalardan biri bo’ldi. Tadqiqot muammosini hal qilishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyatning o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olish asosida bo’lajak o’qituvchilarning o’quvchilarda geologik bilimlarni shakllantirish mazmunini tushunish ularning kompetentligini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon modeli tarkibini aniqlash imkonini beradi. U yaxlit birlikka ega bo’lib bloklardan tarkib topadi: maqsadli, mazmunli, jarayonli, diagnostik.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar natijasida bo’lajak geografiya fani o’qituvchilarning o’quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon modeli ishlab chiqildi (2.1-rasm).



4-rasm. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishning innovatsion-pedagogik modeli

Bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarda geologik bilimlarni shakllantirish yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli maqsad (ayni jarayonning maqsad va vazifalari), mazmunli (bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va rivojlantirish komponentlari), jarayonli (bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirish jarayoni ), diagnostik (bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirish darajasini aniqlash) bloklaridan tashkil topgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarda geologik bilimlarni shakllantirish yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli maqsad (ayni jarayonning maqsad va vazifalari), mazmunli (bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va rivojlantirish komponentlari), jarayonli (bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirish jarayoni ), diagnostik (bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilar geologik bilimlarini rivojlantirish darajasini aniqlash) bloklaridan tashkil topgan

Maqsadli blokda geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablarida belgilangan ta'lim mazmunining zarur va yetarli hajmini egallagan, ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, mutaxassislik fanlaridan o'z bilimini chuqurlashtirib, geologik bilimlarni puxta egallagan - bo'lajak geografiya fani o'qituvchisini tayyorlash vazifasi qo'yilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va uning natijalari tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida Oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishga doir jarayonda qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, samaradorlik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini aniqlashning muhim shartlaridan biri – tajriba-sinov ishlarining to'g'ri tashkil etilishidir. Tajriba sinov-ishlari ta'kidlovchi, asoslovchi va shakllantiruvchi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichlar asosiga Oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning natijadorligi solishtiriladi, tahlil qilinadi va natijalar asosida ilmiy farazlar ilgari suriladi. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarini uchun ta'kidlovchi, asoslovchi va shakllantiruvchi bosqichlari belgilandi.

Tajriba-sinov bazasi sifatida Buxoro davlat pedagogika instituti, Guliston davlat universiteti va Farg'ona davlat universitetlarining sinov guruhlarida 268 nafar, nazorat guruhlarida esa 267 nafar, jami 535 nafar talabalari tanlab olindi.

Natijalarni matematik-statistik tahlil qilish oson bo'lishi uchun va reprezentativlik asosida mazkur oliy ta'lim muassasalarining 535 nafarining natijalari tekshirildi. Buxoro davlat pedagogika instituti (176 nafar), Guliston davlat universiteti (156 nafar), va Farg'ona davlat universiteti (203 nafar) tanlab olingan respondent talabalar nazorat va sinov guruhlariga mos ravishda ajratildi. Tanlab olingan respondent talabalardan natijalarni hisoblash uchun jami 270 nafar tajriba va 265 nafar nazorat guruhlarini natijalari asos sifatida olindi:



Asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijalari Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarini takomillashtirish darajasini adaptiv (past), reproduktiv (o'rta) va kreativ (yuqori) darajalar shaklida aniqlandi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari so'ngida Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarini takomillashtirish samaradorligi qayta tekshirildi va jadval ko'rinishida umumlashtirildi.

Tajriba so'ngida olingan yakuniy miqdor ko'rsatgishlari 3.1, 3.2. 3.3-jadvallarda keltirib o'tilgan.

### 3.1-jadval.

#### Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirish darajasi

<i>Darajalar</i>	<b>Tajriba avvalida</b>				<b>Tajriba so'ngida</b>			
	Buxoro davlat pedagogika instituti				Buxoro davlat pedagogika institute			
	tajriba guruhi		nazorat guruhi		tajriba guruhi		nazorat guruhi	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Kreativ	12	14,3	16	18,2	42	47,6	20	22,7
Reproduktiv	30	33,3	32	36,4	25	28,6	32	36,4
Adaptiv	46	52,4	40	45,4	21	23,8	36	40,9
<b>Jami</b>	88	100%	88	100%	88	100%	88	100%
<i>Darajalar</i>	Guliston davlat universiteti				Guliston davlat universiteti			
	tajriba guruhi		nazorat guruhi		tajriba guruhi		nazorat guruhi	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
	Kreativ	19	24	23	29,6	34	44	26
Reproduktiv	29	36	26	33,3	25	32	29	37,1
Adaptiv	31	40	29	37,1	19	24	23	29,3
<b>Jami</b>	78	100%	78	100%	78	100%	78	100%
<i>Darajalar</i>	Farg'ona davlat universiteti				Farg'ona davlat universiteti			
	tajriba guruhi		nazorat guruhi		tajriba guruhi		nazorat guruhi	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
	Kreativ	28	27,3	25	25	49	48,4	25
Reproduktiv	28	27,3	20	20	34	33,4	30	30
Adaptiv	46	45,4	56	55	19	18,2	46	45
<b>Jami</b>	102	100	101	100%	102	100%	101	100%

### 3.2-jadval.

#### Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining solishtirma tahlili (Oliy o'quv yurtlari kesimida)

Tajriba guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Kreativ	Reproduktiv	Adaptiv	Jami
	Buxoro davlat pedagogika instituti	42	25	21	88
	Guliston davlat universiteti	34	25	19	78
	Farg'ona davlat universiteti	49	34	19	102
<b>Jami:</b>		<b>125</b>	<b>84</b>	<b>59</b>	<b>268</b>
Nazorat guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Kreativ	Reproduktiv	Adaptiv	Jami
	Buxoro davlat pedagogika instituti	20	32	36	88
	Guliston davlat universiteti	26	29	23	78
	Farg'ona davlat universiteti	25	30	46	101
<b>Jami:</b>		<b>71</b>	<b>91</b>	<b>105</b>	<b>267</b>

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirish mezonlarining barchasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida tajriba-sinov ishlarining yakuniy xisob-kitobi amalga oshirildi (3.2.4-jadvalga qarang).

### 3.3-jadval.

#### Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashganlik dinamikasi (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari ( % da )		
		Kreativ	Reproduktiv	Adaptiv
Tajriba guruhlarida	268	125 47	84 31	59 22
Nazorat guruhlarida	267	71 26,5	91 34	105 39,5

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i = 0,47 \cdot 3 + 0,31 \cdot 2 + 0,22 \cdot 1 = 2,25$$

Foizda  $\bar{X}\% = \frac{2,25}{3} \cdot 100\% = 75,0\%$

$$\bar{Y} = \sum_{i=1}^{n=3} q_j Y_j = 0,27 \cdot 3 + 0,34 \cdot 2 + 0,39 \cdot 1 = 1,88$$

Foizda  $\bar{Y}\% = \frac{1,88}{3} \cdot 100\% = 62,6\%$

Demak, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish  $(75,0 - 62,6)\% = 12,4\%$  ga yuqori ekan.

Olingan natijalardan Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonining noldan kattaligi bilan ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador (12,4%ga) ekanligini va bizning ko'zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko'rsatadi.

## XULOSA

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili asosida jahonning rivojlangan mamlakatlarida o'qitishning zamonaviy va kebg qamrovli tizimi qo'llanilishi, unda dasturiy-ta'lim vositalarining ilmiy-metodik ahamiyati aniqlanib, "Geografiya" yo'nalishiga oid ilmiy-pedagogik, musaxassislar tayyorlash xolati va ularning kasbiy-pedaogik tayyorgarligida zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanigi nazariy asoslandi.

2. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirish va kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda nazariy va amaliy bilimlarni boyitish maqsadida "Geomorfologiya va geologiya asoslari" nomli darslik ishlab chiqilgan va nashr etilgan bo'lib, ta'lim sifatining samaradorligini oshirishda muhim didkaktik omil bo'lib xizmat qilishi, tadqiqot ishining amaliy tajriba jarayonida o'z isbotini topdi.

3. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirish va kasbiy-pedagogik faoliyatida tayyorlashda nazariy va amaliy bilimlarni yanada samarali boyitish maqsadida "Teaching geology" nomli dasturiy ta'minot yaratilgan. Dastur asosan o'quvchilarni tasavvir qilish imkoni mavjud bo'lmagan mavzular yuzasidan tayyorlangan 3D animatsiyalar, moddiy-texnik bazasi mavjud bo'lmagan mavzular bo'yicha tayyorlangan virtual laboratoriyalar, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishini yanada kengaytirish imkoniyatlarini

takomillashtirish maqsadida video va vizual materiallarni o'z ichiga olgan bo'lib, ushbu dasturiy ta'minot ta'lim jarayonida amaliy tadbiriq etilgan.

4. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy innovatsion-pedagogik modeli ishlab chiqilgan bo'lib, o'qitish metodlarini qo'llash ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy-pedagogik jihatdan nazariy asoslab berilgan.

5. Tajriba-sinov ishlarining miqdor va sifat jihatidan matematik-statistik tahlili bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv metodik darsliklar, dasturiy ta'lim vositalari, innovatsion kasbiy faoliyatga asoslangan takomillashtirilgan model va o'qitish metodikasining mazmuni samarali ekanligini baxolash imkoni berdi.

6. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishda o'quv metodik darsliklar, zamonaviy dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishga oid takomillashtirilgan metodika asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish tajriba guruhi talabarlari o'zlashtirish ko'rsatgichining nazorat guruhi talabarlarga nisbatan 12,4 foizga oshganligi ko'rsatildi.

## **TAVSIYALAR**

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirishda "Geografiya" ta'lim yo'nalishining malaka talablaridagi ilmiy-tadqiqot, loyihaviy-konstruktorlik, tashkiliy-boshqaruv, pedagogik faoliyat turilarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlaridan (qulaylik, vizuvallik, amaliy yo'nalganlik) samarali foydalanib, videodarslar, virtual laboratoriyalar va zamonaviy ko'rgazmali qurollar ishlab chiqishni kengaytirish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

2. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv axborotlarini mustaqil izlash va tanlash jarayoniga faol jalb etish, amaliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni o'quv dasturlari va o'qitish metodikalariga integrativ singdirib borish lozim.

3. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarini rivojlantirish uchun tarkibida geologik mazmundagi mavzulari bo'lgan fanlarni o'z ichiga oluvchi platformalar yaratish hamda geologiya sohasida yetakchi bo'lgan respublika va xalqaro oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
DSc.03/30.12.2021.GR.02.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**МАМАТИСАКОВ ЖАХОНГИРМИРЗО ЖАМОЛИДДИН УГЛИ**

**МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ К  
РАЗВИТИЮ ГЕОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (география)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2024**

**Тема докторской диссертации по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.3.PhD/Ped5055.**

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyo.net» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** Ахмадалиев Юсупджон Исмаилович  
доктор географических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Раджабов Фуркат Торакулович  
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Жанибеков Бобур Омонович  
доктор философии (PhD) по геолого-минералогических наук, доцент

**Ведущая организация:** Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании разового Научного совета в \_\_\_\_ “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2024 года на базе Научного совета DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 в Самаркандском государственном университете им. Шарофа Рашидова (адрес: 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, аудитория 105, главный корпус Самаркандского государственного университета, тел.: (+99899) 776-77-25, факс: (99866) 239-11-40; E-mail : ik-geografiya2019@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрированный под номером \_\_\_\_). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Телефон: (+99899) 776-77-25.

Автореферат диссертации распространен “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Реестр протокола рассылки № \_\_ от “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2024 г.).

**С.Б.Аббасов**

Председатель разового Научного совета при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.г.н, профессор

**Б.А.Мелиев**

Ученый секретарь разового Научного совета при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор философии по географическим наукам (PhD), доцент

**М.Р.Усманов**

Председатель Научного семинара Разового Научного совета при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.г.н. (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Бурное развитие мировой экономики и расширение производства одновременно ставят на повестку дня проблему рационального использования природных ресурсов и устойчивого развития. Территориальная разбросанность и ограниченность ресурсов делают актуальной задачу повышения уровня геологической грамотности общества с целью обеспечения их устойчивого использования. В связи с этим Цели устойчивого развития ООН определили задачу «обеспечения того, чтобы все студенты приобрели знания и навыки, необходимые для внесения вклада в устойчивое развитие к 2030 году». Важно повысить уровень подготовки будущих учителей географии, усовершенствовать современные методы обучения, внедрить инновационные методы передачи геологических знаний учащимся в формировании у учащихся навыков эффективного использования природных ресурсов, устойчивого развития.

В развитых странах мира проводится ряд научно-исследовательских работ, направленных на повышение уровня геологической грамотности населения и обеспечение устойчивого развития общества путем использования современных методов и средств передачи геологических знаний. На уроках географии закладывается фундамент предварительных знаний в изучении и практическом применении достижений современной геологической науки. В связи с этим особое внимание уделяется разработке моделей развития геологических знаний, совершенствованию педагогических условий, реализуемых в образовательном процессе, углублению процессов использования современных технических средств обучения.

